O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIY- SIYOSIY
FANLAR FAKULTETI

Ro'yxatga olindi:
№60311000- KOS1304
2024 yil "10" 21

"TASDIQLAYMAN"
SamDU rektori:
R.I.Xalmuradov
2024 yil "__" _____

"KONFLIKTLAR SOTSIOLOGIYASI"

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	300 000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot;
Ta'lim sohasi:	310 000 – Ijtimoiy va xulq-atvorga mansub fanlar;
Ta'lim yo'nalishi:	60310400 – Sotsiologiya

Samarqand-2024

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
KOS1304	2025-2026	3	4

Fan/modul turi	Ta’lim tili-	Haftadagi dars soatlari
Majburiy	O‘zbek	4 soat

	Fan nomi	Auditoria mashg’ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami:
1.	Konfliktlar sotsiologiyasi	52	68	120

Fanning maqsadi (FM)	
1	**Fanni o‘qitishdan maqsad va vazifalari** - Jamiyat va sotsial munosabatlar tizimida konfliktlarning o‘rni va rolini ilmiy-tahliliy jihatdan o‘rganib, ularga holisona baho berish, sotsial konfliktlarni xususiyatlaridan kelib chiqib ularni boshqarish, oldini olishning yoki bartaraf etish imkoniyatlarining nazariy-konseptual, shuningdek, amaliy jihatlarini talabalarga o‘rgatish asosiy maqsaddir. Shuningdek fanni o`qitishda vazifalari quyidagilar: - Talabalarni Konfliktlar sotsiologiyasining nazariy asoslari va yoshlarni tadqiq etish uchun amaliy materiallar bilan qurollantirish; - Konfliktlar sotsiologiyasi fanining o`ziga xos atamalari, rivojlanish yo’nalishlari, bugungi ahvoli va istiqboli xususida tasavvurga ega bo`lishi kerak; - Mamlakatimiz hamda butun dunyoda kechayotgan voqeliklar, jarayonlar to‘g‘risida tegishli tasavvurga ega bo‘lishlari lozim

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg’ulotlari) **II.I Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**	
Mashg’ulotlar shakli: ma’ruza (M)	
M1	**Konfliktologik g‘oyalarning shakllanishi (2 s)** Darsning asosiy qismida ijtimoiy munosabatlar turi sifatida mojaroga asosiy tushuncha berilib, konfliktologik paradigmasining tarixiy shartlari va Konfliktlar sotsiologiyasi fanining amaliy fan sifatida shakllanishi berilgan. Darsning maqsadlaridan biri Konfliktlar sotsiologiyasi fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatishdir. Tayanch tushunchalar: konflikt, ziddiyat, nizo, vaziyat, toqnashuv, komponent, jamoa, ruhiy muloqot, mehnat jamoasi, konflikt vaziyat, prinsiplar, tarbiyalanganlik darajasi, mojaro, kayfiyat, bestruktiv yondashuv, dekonstruktiv yondashuv, konfliktning davomiyligi, konstruktiv yondashuv

M2	**Konfliktlar sotsiologiyasi fanining predmeti va tadqiqot metodlari** Ushbu m a'ruzada Konfliktlar sotsiologiyasi fanining boshqa ijtimoiy gumanitar fanlar, alohida falsafa bilan aloqasi tahliliy berilgan. Shuningdek Zimmel, Klauzevits, Parsons, Doych, Darendorf, Veber va boshqalarning asoslari berilgan. Mazkur mavzu mojaroning ijtimoiy rivojlanishidagi klassik nazariyalaming o'rni va rolini ochib beradi. Tayanch tushunchalar: konflikt, turkum fanlar, ijtimoiy konflikt, pedagogik konflikt, jismoniy zo'ravonlik, anatomiya, fiziologiya, psixologiya, sotsiologiya, falsafa, tarix, huquq, 11 ijtimoiy siqiluv, dilsiyohlik, hafagarchilik, nafrat, qasos, birovlarni mensimaslik, kibrli munosabat
M3	**Konflikt tushunchasi va tipologiyasi** Ushbu ma'ruzada konflikt inson hayotining ajralmas tarkibi ekanligi, Bolalar va kattalarning turli nizolar va ziddiyatlar bilan to'qnashuvi, konflikt vaziyatlarning kelib chiqishida "konfliktogen"larning o'rni haqida so`z yuritiladi. Konfliktogen - konfliktga imkon beruvchi, konflikt uchun sharoit yaratuvchi sifatidagi o`rni tahlil etiladi. Tayanch tushunchalar: konfliktogenlar, zo'ravonlik, kuch ishlatish, zo'rlik qilish, odat, inson, mehrliroq bo'lish, manfaat, muhofaza qilish, yoqtirish, bola, yigit, do'pposlash, nizo, ilk bolalik, tabiiy, piching qilish, bolalik davri, kelishmovchilik, histuyg'ular, jizzakilik, hovliqmaslik
M4	**Konfliktlar sabablari va motivatsiyasi.** Ushbu ma'ruzada konfliktlarning sabablari, nizolar oldini oluvchi xabarlar, nizolarni hal qilishga yondashishlar. Nizolarning subyektiv xususiyatlari va pedagogik-psixologik asoslari. Nizoli vaziyatning obyektiv mazmuni, pedagogik-psixologik konfliktologiyani nazariy tahlil qilishdagi dastlabki xulosalar. Nizoli vaziyat ishtirokchilarining turli himoyalanish shakllari, nizoning rivojlanishi borasidagi bosqichlari haqidagi bilim va tasavvurlarni oshirish masalalari sotsiologik tahlil etiladi. Tayanch tushunchalar: nizo, nizoli vaziyat, yechimini topish, tarkibiy qism, qoida, umumiy qoida, natija, qiyinchilik, gu- 27 ruhlar, texnologiya, tamoyil, mohirona, tipologiya, yechim, ijobiy natija.
M5	**Konfliktlar funksiyalari va dinamikasi** Ushbu ma'ruzada konfliktlarning funksiyalari, rivojlanish dinamikasi, konflikt signallari va konfliktning to'la namoyon bo'lishi. Konflikt signallari: inqiroz, tomonlar orasidagi tanglik, tushunmovchilik, xasadgo'ylik, insidentlar, diskomfort va ular haqida ma'lumotlar beriladi. Tayanch tushunchalar: konflikt signallari, kelishmovchilik, inqiroz, o'zaro tushunmaslik, hasadgo'ylik, g'ayirlik, ayirmakashlik, tomonlar orasidagi tanglik, tushunmovchilik, insidentlar, diskomfort, zo'ravonlik, tahdid, shantaj, o'zini emotsional tinchlantirish, parallel fikrlar, voqealarni taqqoslash, o'lchash, fikrni jamlash.
M6	**Konfliktlarni oldini olish va bartaraf etish usullari** Ushbu ma'ruzada konfliklarni oldini yo`llari, konflikt vujudga kelgan

	taqdirda uni bartaraf etish usullari haqida so`z yuritiladi. Konfliktli vaziyatlarda agressiya va zo'ravonlikning o'zaro bog'liqligini inobatga olish zarurligi, inson kayfiyatida agressiv holatlarning o'sib borishi va to'planishi, agressiyaning inson xarakterida tug'ma va tabiiy bir element sifatidagi o`rni tahlil etilgan .Shuningdek, konfliktli vaziyat, insident va konflikt oldi holatlarni hal etish bilan bog`liq masalalar yoritilgan. Tayanch tushunchalar: agressiya, zo'ravonlik, hujum qilish, emotsiya, instinktlar, hissiyotlar, o'z kuchiga ishonmaslik, 47 doimiy jahldorlik, jizzakilik, tajanglik, besabrlik, besaramjonlik, sivilizatsiya, intuitiv, nosog'lom, ruhiy majruh, psixologiyasi mo'rt odam, stress, depressiya, adekvat javob, frustatsiya holati..
M7	**Siyosiy konfliktlar** Ushbu ma'ruzada siyosiy konfliktli vaziyat va uning yuzaga chiqish sabablari. Muzokaralar jarayonining bosqichlari haqida. Siyosiy jarayonlarda samarali aloqa texnologiyalarining ahamiyati. Siyosiy ziddiyatlarning xususiyatlari haqida so`z yuritiladi. Shuningdek, XXI asr xalqaro siyosiy maydondagi diplomatic inqirozlar ham tahlil qilinadi. Tayanch tushunchalar: Siyosat. Jamiyatning siyosiy hayoti. Siyosiy tizim. Siyosiy ong. Xalqaro siyosiy munosabatlar. Siyosiy muassasa va tashkilotlar. Davlat. Jamoat tashkilotlari. Ijtimoiy harakatlar. Nodavlat, notijorat tashkilotlar.
M8	**Boshqaruv sohasidagi konfliktlar** Ushbu ma'ruzada ishlab chiqarish korxonalari va ta'lim muassasalarida rahbar va xodimlar o'rtasidagi nizolar. Boshqaruv sohasidagi konfliktologik kayfiyat va xususiyatlarni o'rganish. Xodimlarning janjalkashliklariga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik xususiyat turlari; nizolar sabablari; nizolarni hal qilish usullari. Boshqaruv tizimida ro'y beradigan nizoli vaziyatla tahlil etiladi. Tayanch tushunchalar: Jamiyot va boshqaruv. Jamiyat boshqaruvining tarixiy ko`rinishlari. O`z-ozini boshqaruv. Maxsus boshqaruv. Davlat jamiyat siyosiy hayotining asosi. Davlat. Jamiyat siyosiy hayotida davlatning o'rni va roli. Boshqaruv sohasidagi konfliktlarning o`ziga xos xususiyatlari
M9	**Global konfliktlar tushunchasi, mezonlari va sabablari** Ushbu ma'ruzada global konfliktlar - tabiiy hayotiy voqelik ekanligi. Global konfliktlarning yechimida qo'llaniladigan adolatparvarlik mezonlari haqida so`z yuritiladi. Shuningdek, global muammolar — umumbashariy hayot va taraqqiyot bilan bog'liq hozirgi zamon muammolari. Jahon termoyadro urushining oldini olish, xalqaro terrorchilikka qarshi kurash va barcha xalqlar uchun tinchlikni ta'minlash masalalari tahlil etiladi. Tayanch tushunchalar: Globalizm, global muammolar, global konflikt, adolatparvarlik mezonlari, ziddiyat, osoyishtalik, mas'uliyat, tinchlik, holat, manfaatlar to'qnashuvi, emotsional-hissiy to'qnashuv, emotsional portlash.

M10	**Etnik va milliy konfliktlar** Ushbu ma'ruzada etnik nizolar tarixi, milliy ziddiyatlarning o'ta keskinlashgan holati, turli sotsial birliklar — sinflar, millatlar, davlatlar, turli sotsial guruhlar, sotsial institut kabilar manfaatlari, maqsadlari, taraqqiyot tendensiyalarining qarama-qarshiligi yoki jiddiy farq qilishi tufayli kelib chiqadigan konfliktlarning mazmun-mohiyati yoritib beriladi. Tayanch tushunchalar: etnos, millat, elat, etnik nizo, millatlararo muloqot, kuch-qudrat manbai, adolat, tinchlik,ahil qo'shnichilik, demokratiya, farovonlik, vijdon erkinligi, insoniy fazilat, pedagogik tafakkur, iymon-e'tiqod, mentalitet, muomala, axborot, muloqot madaniyati.
M11	**Davlatlararo konfliktlar** Ushbu ma'ruzada gegemon davlatlar, rivojlangan davlat, rivojlanayotgan davlatlar tushunshalarining mazmun va mohiyati. Siyosatshunoslarning davlatlararo konfliktlar to'g'risidagi qarashlari. Davlatlararo konfliktlar rivojlanishining obyektiv qonunlari. Ijtimoiy taraqqiyot qonunlarining shakllanish va amal qilishi. Ehtiyoj va manfaat ijtimoiy qonunlar talablarining dastlabki ifodasi sifatida tahlil etiladi. Tayanch tushunchalar: gegemon davlat, rivojlangan davlat, rivojlanayotgan davlatlar, ijtimoiy taraqqiyot.
M12	**Shaxslararo va guruhlararo konfliktlar** Ushbu ma'ruzada shaxslararo konflikt tushunchasi va turlari, sabab va oqibatlari,. Shaxslararo konfliktlarni aniqlashning uslub va shartlari, Shaxslararo konfliktlarni yechilishi, Guruh tushunchasi, turlari va ular o`rtasida vujudga kelishi mimkin bo`lgan konfliktlar tahlil etilgan. Tayanch tushunchalar: Jamiyat va shaxs, ularning uzviy birligi va aloqadorligi. Jamiyat va shaxs orasidagi o'zaro aloqadorlik haqidagi falsafiy qarashlar. Jamiyatning shaxsga ta'siri. Shaxsning jamiyatga ta'siri.
M13	**Yoshlar orasidagi konfliktlarning o`ziga xos xususiyatlari** Ushbu ma'ruzada davlatimizning yoshlarga oid davlat siyosati, zamonaviy yoshlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasining pedagogik aspektlari. Oila - jamiyatning boshlang'ich ijtimoiy bo'g'ini ekanligi. Zamonaviy o'zbek oilasi ichidagi ziddiyatlar va inqirozlar xususida so`z yuritiladi. Shuningdek, zamonaviy yoshlar orasidagi konfliktlarning o`ziga xos xususiyatlari tahlil eiladi. Tayanch tushunchalar: yoshlarga oid davlat siyosati, zamonaviy yoshlar, yosh oila pedagogik aspektlar, milliy qadriyat, jamiyat, umumbashariy qadriyat, institut, insoniy qadriyat, gumanitar qadriyat, oila iqtisodi, oilaviy madaniyat.
Jami	**26 soat ma'ruza**
	III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: (A) **Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.**

A1	Etnik konfliktlar.
A2	Davlatlararo konfliktlar.
A3	Shaxslararo konfliktlar.
A4	Guruhlararo konfliktlar sabablari.
A5	Mediatorlik strategiyasi va texnikasi.
A6	Yoshlar orasida konfliktlarni aniqlash
A7	Muzokaralar konfliktlarni bartaraf etish usuli sifatida.
A8	Muzokaralar olib borishning taktikasi va strategiyasi.
A9	Konfliktlarni tartibga solish masalasi
A10	Konfliktlarni oldini olish bartaraf etish usullari.
A11	Boshqaruv sohasidagi konfliktlar
A12	Global konfliktlar tushunchasi, mezonlari va sabablari
A13	Konsensus va kompromiss texnologiyalari.
Jami	**26 soat amaliy**

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular
"Konfliktlar sotsiologiyasi" fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlari bo'yicha mustaqil ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mavzu nomi
1.	Xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash muammolari va O'zbekiston Respublikasi xissasi.
2.	Nizolar fenomenini o'rganishda klassik yondoshuvlar.
3.	Siyosiy nizolar strukturasi va dinamikasi.
4.	Nizolar oldini olish strategiyalari.
5.	Konfliktlarni boshqarish usullari.
6.	Etno-milliy nizolarning tarixiy-evolyutsion xususiyatlari.
7.	Nizolarni hal etishda muzokaralarning o'rni
8.	Boshqaruv sohasidagi konfliktlar
9.	Global konfliktlar tushunchasi, mezonlari va sabablari
10.	Nizolarni hal etishda Konsensus va kompromiss texnologiyalar.
11.	Konfliktlar sabablari va motivatsiyasi.
12.	Millatchilik, shovinizm va genotsid tushunchalarining mazmun-mohiyati.
13.	Zamonaviy millatlararo munosabatlarda siyosiy, huquqiy, mafkuraviy va ijtimoiy-madaniy krizis omillar.
14.	Global konfliktlar sharoitida zamonaviy diplomatiya
15.	Globalizatsiya fenomeni va xafvsizlik muammolari
16.	Terrorizm, terror psixologiyasi fenomenlarning analizi kontsepsiyasi
17.	Terrorizmning namoyon bo'lishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy, iqtisodiy va sivilizatsion omillar
18.	Siyosiy konfliktlarning klassifikatsiyasi
19.	Amerika konfliktologiya maktablarinirig sxemalari: Ch.Tilli, E.Loui, T.Laynz

20.	Yoshlar orasida konfliktlarning o`ziga xos xususiyatlari
Konfliktlar sotsiologiyasi fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Talabalarni jahon sotsiologlari va ularning sotsiologik ta'limotlari bilan tanishtirish, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining sotsiologiya fanining rivojlanishidagi hissasi, o'rnini ma'naviy-mafkuraviy qurollantirish. Konfliktlarning mazmuni, vujudga kelishi, konsensus va konpromis tushunchasi, uning mohiyati singari noan'anaviy fikrlashga ko'maklashish antik davr, o'rta asrlar va yangi davr sotsiologik bilimlarini rivojlanishi va ularning hozirgi ijtimoiy-gumanitar bilimlar haqida tasavvurga ega bo'lishi;. Talabalar sotsilogik fikrlar taraqqiyoti jarayonini yaxlit tarzda tasavvur qila olishi, ayni paytda, konflikt inson hayotining ajralmas tarkibi ekanligi, Bolalar va kattalarning turli nizolar va ziddiyatlar bilan to'qnashuvi, konfliktlarni bartaraf etish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak; Shuningdek talabalar konfliklarni oldini olish yo`llari, konflikt vujudga kelgan taqdirda uni bartaraf etish usullari haqida bilimlarga ega bo`lishlari. Konfliktli vaziyatlarda agressiya va zo'ravonlikning o'zaro bog'liqligini inobatga olish zarurligi, inson kayfiyatida agressiv holatlarning o'sib borishi va to'planishi, agressiyaning inson xarakterida tug'ma va tabiiy bir element sifatidagi o`rni tahlil etish va turli xildagi konfliktlarni hal etish malakasiga ega bo'lishi kerak.	
3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • **"Konfliktlar sotsiologiyasi"** fanidan talabalar, ushbu davrda tarixiy tadqiqotlar ko'lami, davrning o'z dolzarb muammosini tadqiqotlarning metodologik asoslari haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;*** • Talaba **"Konfliktlar sotsiologiyasi"** fanining alohida fan sifatida mavqyeiga ega bo'lishi, o'rganilayotgan davr va bugungi kun fanning dolzarb muammolarini to'g'ri talqin qilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*** Talaba o'zlashtirayotgan fan bo'yicha egallagan bilimlarini tahlil qilish to'plangan tarixiy tajribani ilmiy va pedagogik amaliyotda samarali qo'llash ***malakalariga ega bo'lishi kerak.***
4.	**VI. Ta'lim texnoligiyalari va metodlari:** ma'ruzalar; interfaol keys-stadilar; "KHWL" metodi; "SWOT" tahlil metodi va boshqa interfaol metodlar
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta'limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish.

6.	**Asosiy adabiyotlar** 1. Анцупов А.Я., Шипилов А.И. Конфликтология: Учебник для вузов. — М.: ЮНИТИ, 2000. - 551 с 2. Лукин, Ю.Ф. Конфликтология : управление конфликтами : Management of the conflicts : учебник для ву зов / Ю.Ф. Лукин. — М. : Академический Проект ; Гаудеамус, 2007. — 799 с. — (Gaudeamus ; Фундаментальный учебник). 3. Jumayev R.Z., Ubaydullayev U.A., Xo'janov B.A. Konfliktologiya asoslari. T.: "Akademiya", 2000. **Tavsiya qilinadigan qo'shimcha adabiyotlar** 1. Вдовина М. Специфика межпоколенних конфликтов. Демографические исследования. – 2010. №4 2. Ратников В.П. и др. Конфликтология. Учебник для вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2001 4. Коузер Л. Основы конфликтологии. - СПб.: Светлячок, 1999. 5. Здравомыслов А. Г. Социология конфликта. - М.: Аспект Пресс, 1996. 10. Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество.- Москва, 1992. 16 . Otamurodov S. Globallashub va millat. -T.: 2008. 20. Mamatov X. Huquqiy madaniyat va O`zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi muammolari.-T., 2009yil. **Elektron ta'lim resurslari** 1. www.tdpu.uz 2. www.pedagog.uz 3.www. Ziyonet.uz 4. tdpu-INTERNET.Ped.
7.	Fan dasturi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti O'quv uslubiy Kengashining 2024 yil "___" _____dagi 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ul:** I.Negmatov– Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti, "Falsafa va milliy g'oya" kafedrasi mudiri
9.	**Taqrizchilar:** **R.K.Yusupov** – Sharof Rashidov nomidagi SamDU Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasi dotsenti. **R.Qobilov** – Samarqand viloyat hokimi o'rinbosari, PhD

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida

Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais - Normamatova

Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasi mudiri — **dots. I.Negmatov**

Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti,dekani — **prof. A.Aymatov**

SamDU o'quv ishlari bo'yicha prorektor — **prof. A.Soleev**